

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

OCHILOVA OZODA BAXTIYOROVNA

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA SHAYX NAJMIDDIN KUBRO
BADIY OBRAZINING YANGILANGAN TALQINI
(Omon Matjon va Xurshid Davron asarlari misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Ochilova Ozoda Baxtiyorovna

O‘zbek adabiyotida Shayx Najmiddin Kubro badiiy obrazining yangilangan talqini
(Omon Matjon va Xurshid Davron asarlari misolida).....3

Очилова Озода Бахтиёровна

Новая интерпретация художественного образа Шейха Наджмиддина Кубро в
узбекской литературе (на примере произведений Омона Матжона и Хуршида
Даврона)29

Ochilova Ozoda Bakhtiyorovna

The renewed interpretation of the literary image of Sheikh Najmuddin Kubro in
uzbek literature (based on the works of Omon Matjon and Khurshid Davron).....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

OCHILOVA OZODA BAXTIYOROVNA

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA SHAYX NAJMIDDIN KUBRO
BADIY OBRAZINING YANGILANGAN TALQINI
(Omon Matjon va Xurshid Davron asarlari misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2882 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (fil-k.urdu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

G'ayipov Dilshod Qadambayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kerukenov Turganbay Arazmedovich
filologiya fanlari doktori, professor

Allambergenov Anvar Erkabayevich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent


Yetakchi tashkilot:


Buxoro davlat pedagogika instituti


Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 Ilmiy kengashning 2025-yil "30" dekabr soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.


Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-923 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati, 2025-yil "16" dekabr da tarqatildi.
(2025- yil "16" dekabr dagi 67 raqamli reestr bayonnomasi.)




O.O. Cho'ponov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


S.S. Atajanov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


A.D. O'razboyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi oldida yurt, vatan tarixida munosib iz qoldirgan buyuk allomalar, tarixiy shaxslar obrazini yaratish, ularni bugungi davr nuqtayi nazaridan yangicha talqin etish masalasi hamisha ham muhim vazifa sifatida o'rganilgan. Bunday asarlar yaratgan iste'dodli adiblarning badiiy iqtidorining turli jihatlarini o'rganish, tarixiy shaxs obrazini yaratishdagi mahoratini tahlil qilish va uning badiiy-estetik ahamiyatini ochib berish adabiyotshunoslik ilmi uchun dolzarb masalalardandir.

Dunyo adabiyotshunosligida ro'y berayotgan adabiy-estetik yangilanishlar tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar obrazini badiiy talqin qilishda ham namoyon bo'lmoqda. Dunyo olimlari, iste'dodli ijodkorlari milliy-madaniy merosni tadqiq qilish va tarixiy obraz yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish bilan bir qatorda, ijodkorning badiiy mahoratini yoritish borasidagi izlanishlarida ham alohida yondashuvlarni namoyon qilmoqda. Bu yo'nalishda yangi davr adabiyotshunosligida muhim muammo hisoblangan mashhur tarixiy shaxslar, yetuk arboblari, allomalar obrazlarining yangilangan badiiy talqinini chuqur va atroflicha tadqiq etish asosiy vazifa hisoblanadi. Haqiqatan ham, dunyoga tanilgan alloma zotlar badiiy obrazi talqinlarini o'rganish muayyan davr adabiyotining poetik ko'lamini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyotshunosligida istiqloлга erishganimizdan keyin barcha sohalarda bo'lgani kabi erkin rivojlanish ro'y bera boshladi. Keyingi yillarda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida sifatiy o'zgarishlar – taraqqiyotning “Yangi O'zbekiston” bosqichi tobora yorqin ko'rinmoqda. Bu tarixiy burilish iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy sohalarda jadal davom etayotir, tub yangilanishlar miqyosi va qamrovi kengaymoqda. Tabiiyki, ularning bir qismi tarixiy va diniy qadriyat shakllarida milliy va umumbashariy ahamiyatga molikdir. Bu borada Prezidentimizning quyidagi fikrlari ibratlidir: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boylıklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelejagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi”¹. Bunday qadriyatlar silsilasida ijodkorlarning shaxsiyati hamda qarashlari katta o'rin tutadi. Shunday siymolardan biri ilk o'rta asrlar falsafiy-tasavvufiy ilmining mashhur namoyandalaridan biri Shayx Najmiddin Kubro (1145-1221) bo'lib, uning hayot va ijod yo'li shu haqiqatning ibratli namunasi. Uning odam va olamni barkamol ko'rish, inson sha'ni, oriyati va g'ururini ulug'lash, axloq, ilmning yuksak maqomiga erishish, Vatan, xalq manfaati himoyasidagi fidoyilik kabi qarashlari umrboqiy bardavom g'oyalar sifatida yashab kelmoqda, yangi jamiyat kishisining komilligi yo'lida xizmat qilmoqda. Ana shulardan kelib chiqib, Kubro badiiy siymosi yaratilgan asarlar qahramon ta'limoti tub asoslarini tashkil etuvchi ruhiy-jismoniy poklik, jo'mardlik, elga sadoqat, saxovat, ezgulik, haqgo'ylik kabi fazilatlarining qator qutblarini tarixiy voqelik va hayotiy to'qima sintezida aks ettiradi, manba vazifasini o'tab, alloma haqidagi umumiy

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // “Халқ сўзи”, 2017 йил, 4 август.

bilimlarimizning boyishiga yordam beradi. Ma'lumki, jonzotlar orasida oliy hilqat – komil inson Kubro ideali edi. Uning umr sarguzashtlari va obrazi tasvirida sayqallangan, aqliy va ta'limiy motivlar ustuvorlik qiladi. Ushbu mulohazalar tarixiy shaxs siymosi haqidagi xolis badiiy talqinlarning mustaqillik mafkurasi asosida yangilanayotgan tarixiylik konsepsiyasining namunasi bo'lib, mavzu dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF – 4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF – 4958-son “Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF – 5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ – 3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ – 3775-son “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2019-yil 29-oktabrdagi URQ – 576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida” gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2020-yil 20-may kuni Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi vaqtida adabiyotning ta'sir kuchini oshirish bo'yicha bergan topshiriqlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan birga, ushbu dissertatsiya ishi sohaga oid muayyan masalalarni ham chuqur o'rganishga imkon beradi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur muammoning o'rganilishi XIII asr – Kubro zamonasidan bugungacha davom etmoqda. O'tmishda yaratilgan og'zaki rivoyat, afsona, hikoyat, qissalar va yozma manoqib, qo'lyozma, toshbosma manbalardagi ma'lumotlar Kubro hayoti solnomasi haqidagi qisman ta'sirli, obrazli talqinning boshlanmasi ham bo'ldi. Ular avliyo-allomaning shaxsiyati, faoliyatiga doir dalil va voqealar bayonini muayyan to'qima, badiiy idrok unsurlari bilan izohlashga intilish asosini tashkil etadi. Bu hol xalq og'zaki ijodi va yozma bitiklar uchun xarakterli bo'lsa, badiiy-estetik ifodaning nisbatan kengroq tahlili hozirgi davrda yuzaga kelgan yoxud qayta chop etilgan mumtoz asarlarda ustuvorlik qiladi. Jumladan:

- Najmiddin Kubroning hayoti va ijodi, ustoz-u shogirdlari, kashf-u karomatlari, bashoratlari, hol ilmi va uning darajalari, inson ruhiyati haqidagi tasavvufiy adabiyotlar. Mazkur manbalar qatoriga Fariddin Attorning “Tazkirat-

ul avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot ul quds”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul futuvvat” va Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” kabi asarlar kiradi.

- Xalq og‘zaki ijodidagi Najmiddin Kubro obrazi tasvirlangan qissalar va manoqiblar. Ushbu guruhga “Shayx Najmiddin Kubro qissasi”, “Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro”² kabi asarlar kiradi.

- Najmiddin Kubro hayoti va tariqatining xorijiy mamlakatlarda o‘rganilishi. Bu M.H.Bursaviy, Dj.S.Trimingem, Devin De – Viz, Usmon Turar, Asad Jo‘shon, Mohir Iz, K.Makrey, F.Mayer, E.E.Bertels va boshqalarning tadqiqotlarini o‘z ichiga oladi³.

- Mustaqillik davri Kubro hayoti va ilmiy-badiiy merosini, jumladan, adabiy siymosini xolis ko‘lamli o‘rganishni boshlab berdi. Bu jarayonda, bir tomondan, uning asarlarini yangicha mezonlar asosida baholash, ikkinchi tomondan, real siymosini gavalantirishda badiiylik va tarixiylik me‘yorlari muvofiqligi qaror topmoqda⁴.

Bu asarlarning har birida Kubroning shaxs va ijodkor sifatidagi tiynati o‘ziga xos ifodalangan bo‘lib, yuksak olijanoblik va ibratnoma fazilatlarini talqini mohiyatini tashkil etadi. Adabiyotshunos I.Haqqul ta’kidlaganidek: “Shahidlar shohi” tarixiy-ma’rifiy qissasida Najmiddin Kubroning hayot tarixi, ma’rifat

² Шайх Нажмиддин Кубро қиссаси. РФА Шарқшунослик институтининг Санкт-Петербургдаги нусхаси (Nov. 217 «A708»); М.Сафарбоев, С.Раҳимов кўлида сақланаётган Шайх Нажмиддин Кубро қиссаси кўлёмза (Урганч) нусхаси.-х.1305/м.1886,- Б. 86.; Маноқиб Шайх Нажмиддин Кубро. ЎЗР ФА ШИ кўлёмзалари: инв. № 7615/І.; Шайх Нажмиддин Кубро қиссаси. ЎЗР ФА ҚИ хазинаси, инв. № 6119.; Абулғозий. Шажаарайи турк. Муҳаррир: А.Ўқтам; Нашрга тайёрловчилар: Қ.Муниров, Қ.Маҳмудов – Т.: “Чўлпон” нашриёти, 1992. – Б.192.

³ Бурсавий Х. Шарҳи усули ашара / Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи: Мустафо Қора – Бурса: Ломей Мухаммадий масжиди, 1137х / 1724 м.й.; Тримингем Дж.С. Суфийские ордена в исламе / Пер.с.англ. А.А.Ставиской, под ред. И с предисл.О.Ф.Акимовской. – М.: София, ИД “Гемос”, 202.-С.480.; Devin De Weese Sayyid ‘Ali Hamadani and Kubrawi Hagiographical Traditions // The legacy of mediaeval Persian Sufism/– London-New York., 1992. – P.121-155.; Усмон Турар. Тасаввуф тарихи.-Т.: Маънавият, 1999. – Б.180.; Жўшон М.А. Ислом, тасаввуф ва ахлоқ /Таржимон: С. Сайфуллох. – Т.: Истиқлол, 1999-Б.238.; Mahir Iz. Tasavvuf/ – Istanbul, 1969; Макрей К. Немагуллоҳия тариқати // Шайх Нажмиддин Кубро. Мақолалар. – Т.: Ёзувчи, 1995. – Б. 60-63; Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования) / Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М: Наука, 1965. – С.365.; Жумаев З. Ўзбек халқ тарихий ривоятлари. фил.фанл.номз. диссер. автореферати. 2005. – Б.21.

⁴ Комилов Н. Нажмиддин Кубро. Рисола. Тошкент. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1995. С. - 32.; Ҳаққул И. Шайхлар ва шаҳидлар Куброси. // “Кубронинг тасаввуфий ҳаёти” асарига сўзбоши. – Т.: “Мовароуннахр” нашриёти. 3-30 бетлар.; Шайх Нажмиддин Кубро ёхуд Шарқ ривоятлари. Тўплам. – Урганч. “Хоразм” нашриёти, 2006. Б.3-99; Раҳимова Б. Ўзбек адабиётида Паҳлавон Маҳмуд образи талқинлари. – Урганч, УрДУ.2012. – Б.93. Сафарбоев О. Нажмиддин Кубронинг тасаввуфий таълимотида инсонпарварлик ва ватанпарварлик ғоялари. фал. ф.н. дисс. автореферати. – Т.: 2011. – Б.26.; Алламбергенов А. Ўзбек адабиётида Абу Райҳон Беруний образи талқинларининг қиёсий таҳлили. Фил.фан. бўй. фал.док. дисс. Автореферати. – Т.: 2022; Хуршид Даврон. Шаҳидлар шоҳи. Қисса. – Т.: “Фан” нашриёти, 2008. Б.199; Омон Магжон. Дийдор азиз. Асарлар. – Т.: “Noshir” нашриёти, 2011. – Б. 200; Жумабоева Ж. Эл билса бўлди. Монография. – Т.: “Истиқлол” нашриёти, 2018. – Б.371; Hamrayeva M. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Nasriy asarlarda Amir Temur obrazi). – 2010; Ashurova G. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazining badiiy talqini. Monografiya. – Т.: “Ilm-ziyo” “Zakovat”, 2021. – B. 250; Kenjayev F. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy talqinlari, Murodov G‘. Tarixiy romanning mushtaraklik va o‘ziga xosliklari uyg‘unligi muammolari. Filol.fan. doktori diss. – Toshkent, 2018; Omanova M. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida shayx valiyalar obrazining badiiy talqinlari. Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori diss. – Jizzax, 2022. – B.156; Pirnazarova M. Omon Matjon she‘riyati badiiyati. Fil.fan.dok.diss.avtoreferati. – Т.: 2024. – B.70. Samandarova N. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida shoir va mutafakkirlar obrazining yangicha talqini. Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori diss. – Urganch, 2024.

taraqqiyotidagi tarixiy xizmatlari, vatanparvarlik jasorati ta'sirli uslubda yoritib berilgan"⁵.

J.Jumaboyeva monografiyasida O.Matjon asarlaridan umumiy qoniqish hosil qilish bilan birga, "Dravaxonim" qissasidagi malika To'rabekaxonimning Kubro siymosining xotiraviy ta'rifida alloma falsafasi ruhining yetishmasligini qayd etsa, "Najmiddin Kubro" tragediyasida "ulug' inson siymosini yaratish jarayonida uning har bir kalomining ilohiyat bilan bog'liq holda keltirish ham faqat fikr takroriday taassurot qoldiradi", - deb yozadi⁶.

Kubro haqidagi ba'zi rivoyat va qissalarda daliliy ma'lumot va taxminlar talqinida ham xato va chalkashlik, noaniqliklar mavjudligi ko'rsatilgan. Jumladan, N.Jabborovning "Millat va din yulduzi" maqolasida⁷ M.Safarboyev va S.Rahimning "Shayx Najmiddin Kubro qissasi yoxud qirq rivoyat" kitobi nashriga yozgan "Najmiddin Kubro qissasi"ning yangi qo'lyozmasi haqida"⁸ sarlavhali so'zboshisida bularni kuzatish mumkin.

Ayon bo'lyaptiki, qayd etilgan izlanishlarda tanlangan muammo miqyos darajasini yoritish, Kubro badiiy obrazini muayyan yo'nalishda maxsus o'rganishga asosiy urg'u berilgan. Zero, bu mavzuda, xususan, istiqloldan keyingi 30 yildan ortiq davr mobaynida yaratilgan asarlarni qamrovli tadqiq etish kubraviyashunoslik haqidagi qarashlarini qisman kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida olib borilayotgan "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy ishlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Shayx Najmiddin Kubro obrazining badiiy va irfoniy-falsafiy jihatdan yangilangan talqinlarini atroflicha ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Tarixiy shaxs konsepsiyasiga yangicha yondashuvda eng zamonaviy ilmiy-estetik tafakkurga tayanish;

Kubro haqidagi badiiy asarlarni alloma merosiga daxldor qo'shimcha manba sifatida mavzu, janr va uslub jihatidan tavsiflash;

Tarixiy real Kubroning badiiy sayqallangan Kubroga "aylantirgan" yozma tasvirlar mualliflaridan har birining ijod qilish manerasi, o'ziga xosligi, individualligi, davr ruhini ifodalay olish mahoratini tahlil qilish;

Kubroning she'riyat, tragediya va yangi qissalardagi siymosi talqinlarida ham alloma qarashlari mohiyatini belgilovchi bosh g'oya – inson va Vatan muqaddas tushunchalari tahliliga e'tibor kuchayganini ko'rsatish.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqot obyektining asosini Omon Matjonning "Dravaxonim" ("To'rabekaxonim") qissasi, "Najmiddin Kubro" fojiasi, Xurshid

⁵ Хаккул И. Шайхлар ва шаҳидлар Куброси. // "Кубронинг тасаввуфий ҳаёти" асарига сўзбоши. – Т.: "Мовароуннахр" нашриёти. 29-30 бетлар.

⁶ Жумабоева Ж. Эл билса бўлди. Монография. – Т.: "Истиқлол" нашриёти, 2018. – Б.148.

⁷ Jabborov N. Millat va din yulduzi // Shayx Najmiddin Kubro. Maqolalar. – Т.Ж "Yozuvchi" nashriyoti, 1995. 64-bet.

⁸ Safarboyev M, Rahim S. Shayx Najmiddin Kubro qissasi yoxud qirq rivoyat. – Urganch. "Xorazm" nashriyoti. 2006. – 3-30-bet.

Davronning “Shahidlar shohi” qissasi tashkil etadi. Mavzuga doir tarixiy asarlar va tazkiralalar tarkibidagi Kubro shaxsi va faoliyatiga oid sharh va parchalardan ham qo‘shimcha manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti. Shayx Najmiddin Kubro obrazi adabiy-tarixiy talqinining yetakchi tamoyil va tasvir xususiyatlari ish predmetini ifodalaydi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-biografik, vorisiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy va muammoli tahlil metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mazkur dissertatsiya ishida Najmiddin Kubroning yozma adabiyotdagi badiiy obrazi ilk marta tizimli tarzda o‘rganilib, hozirgi davr adabiyotshunosligidagi tarixiy shaxs va voqelik konsepsiyasining yangilanish omillari asoslari ochib berilgan;

Najmiddin Kubro siymosi tahlilida badiiy-tarixiy xarakter tamoyilining millatparvarlik, vatansevarlik, bashoratgo‘ylik, xokisorlik, diniy va dunyoviy ilmga rag‘bat kabi yetakchi xususiyatlari asoslanib, badiiy asarning tasvir hamda ifoda imkoniyatlari obraz tahlili misolida isbotlangan;

Yozma adabiyotning qissa, she‘riyat, tragediya kabi janrlari asosida obrazning badiiy imkoniyatlari ruhiy tahlilning jismoniy, ma‘naviy va psixologik tamoyillari negizida oydinlashtirilgan;

Omon Matjonning “Dravaxonim” (“To‘rabekaxonim”) qissasi, “Najmiddin Kubro” fojiasi, Xurshid Davronning “Shahidlar shohi” qissasida badiiy mahorat masalasi narsa-hodisalar tasviri, insonni anglash, badiiy kashf etish iste‘dodi Najmiddin Kubro obrazi tasviri orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Najmiddin Kubro badiiy obrazini shakllantirgan asarlarni o‘rganish natijalari zamonaviy adabiyot jarayonining rivojlanishiga hissa qo‘shishi ta‘kidlangan;

bugungi o‘zbek adabiyotida tarixiy alloma obrazini yaratish tamoyillarining nazariy-ilmiy asoslari keng tahlilga tortilgan;

adiblarning qissalarida tarixiy haqiqat bilan badiiy talqin, tarixiy shaxsning hayotiy yo‘li badiiy asarda aks ettirilishi ko‘plab misollar orqali isbotlangan;

ijodkorlar asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy kompozitsiya, uslubiy-kompozitsion xususiyatlar, g‘oya va mavzu muvofiqligi hamda Najmiddin Kubro obrazining tabiatidagi milliy o‘ziga xosliklar ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar asosida batafsil yoritilgan.

tadqiqot mazmunidan Kubro tarixiy-adabiy siymo ekanligi ma‘lum bo‘lar ekan, uning shaxsiyatida zukkolik, karomatlilik, bag‘rikenglik, haqgo‘ylik, poklik, olijanoblik, ta‘limoti va amaliy faoliyatida bilimdonlik, jasorat, vatanparvarlik, adolatparvarlik, poklik, qahramonlik kabi fazilatlar uyg‘unligi boqiy milliy qadriyat sifatida hozir ham tarbiyaviy-ma‘naviy ahamiyati oshaverishi tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyaning shakllanishi obyektga yondashuv va qo‘llanilgan metodlarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, ilmiy muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning bir qancha usullar bilan asoslangani, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga tayanilganligi, shuningdek, nazariy fikrlar va xulosalar qiyosiy, psixologik, analitik hamda

sinkretik tahlil usullari yordamida shakllantirilib, amaliyotda qo'llanilishi hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanishi natijaning ishonchligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati tarixiy asarlar yaratish konsepsiyasini, tarixiy haqiqat hamda badiiy talqinni, shuningdek, tarixiy shaxs obrazini o'rganish va obyektiv baholashga oid ilmiy izlanishlarda qo'llanish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Dissertatsiyada ifodalangan fikrlar va xulosalar esa tarixiy shaxsning ma'naviyati va ruhiyatini, shu bilan bir qatorda nasriy asarlarni yangilangan badiiy talqin va tarixiy haqiqat nuqtayi nazaridan tahlil qilish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallari respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakultetlarida, shuningdek, o'zbek tili va adabiyoti fani o'qitiladigan fakultetlarda maxsus kurslar yoki seminar mashg'ulotlari tashkil etishda, umumta'lim maktablari, litsey va kollejlarning adabiyot o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma sifatida samarali qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot doirasida badiiy asarni ilmiy-nazariy tahlil qilish va yozuvchi badiiy mahoratini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy umumlashmalar "O'zbek adabiyoti tarixi", "Adabiyotshunoslik nazariyasi" hamda "Hozirgi adabiy jarayon" kabi fanlardan darsliklar va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda muhim manba vazifasini o'tashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shayx Najmiddin Kubro badiiy obrazining yangilangan talqinlari tadqiqi yuzasidan olingan natijalar asosida:

O'zbek adabiyotida Shayx Najmiddin Kubro badiiy obrazining yangilangan talqini muammosini o'rganish hamda uning o'zbek adabiyoti rivojida ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish jarayonida erishilgan ilmiy natijalardan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan amalga oshirilgan FA-F-1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan. (O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 17-aprel № 224/1 sonli ma'lumotnomasi). Najmiddin Kubro siymosi tahlilida badiiy-tarixiy xarakter tamoyilining yetakchi xususiyatlari aks ettirilgani kabi xulosalari yuqoridagi amaliy loyiha natijalari bilan qiyoslandi.

Najmiddin Kubro hayoti va faoliyati yoritilgan badiiy asarlarning har birida tasvir hamda ifodaning o'ziga xosligi aniq misollar bilan dalillangani aks etgan xulosalaridan FA-043429-raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 17-aprel № 223/1 sonli ma'lumotnomasi). Natijada yozma adabiyotning qissa, she'riyat, tragediya janrlari tabiati va badiiy imkoniyatlari aspektida Kubroning turli vaziyatlardagi mustahkam jismoniy, ma'naviy va ruhiy qiyofasi psixologik tahlillarda ochib berilgani oydinlashtirilgan xulosalari loyiha asosiy xulosalari bilan muqoyasa qilindi.

Omon Matjon, Xurshid Davron qissalaridagi badiiy mahorat voqelik, narsahodisalar tasviri va insonni anglash, badiiy kashf etish iste'dodi uning ijodiy

uslub, dunyoqarashi bilan bog'liq holda o'rganilgani, Najmiddin Kubro obrazi aks etgan mualliflar asarlaridagi uslubiy o'ziga xoslik va mahorat masalalari ochib berilgani ifodalangan xulosalardan "Xorazm" teleradiokanali DM tomonidan tayyorlangan "Adabiy muhit", "Assalom, Xorazm" nomli dasturlarning ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan, tadqiqotchi bilan bevosita suhbat olib borilgan ("Xorazm" teleradiokanali" DMning 2025-yil 21-may 356-sonli ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning Najmiddin Kubro obrazining yangilangan talqinlari borasidagi bilimlari boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro, 3 ta respublika konferensiyasida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish e'lon qilingan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch asosiy bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 142 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Badiiy ijodda tarixiy shaxs konsepsiyasi**" deb atalgan. Bobning ilk fasli "**Adabiy-tarixiy talqin tamoyillari**" deb nomlangan. Ma'lumki, o'zbek adabiy tafakkurining barcha bosqichlarida buyuk tarixiy shaxslar, xususan, pir va avliyo, shuningdek, tasavvuf namoyandalari haqida turli asarlar yaratilgan. Yozma adabiyotda ularning turli janr va uslubdagi namunalari mavjud. Jumladan, Najmiddin Kubro, Imom al-Buxoriy, Zamaxshariy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi alloma va adiblar to'g'risida turli davr va janrlarda vujudga kelgan asarlar buning dalilidir. Bu asarlarning o'ziga xosligi shundaki, ulardagi qahramonlar faoliyati o'zlari mansub davr voqeligi bilan uyg'unlikda tasvirlanadi. Shu bois ular, bir tomondan, o'z davrining farzandi, ikkinchi tomondan, ilg'or dunyoqarashlari va yuksak ideallari bilan tarixan o'z zamonasidan ilgarilab ketgan siymolar sifatida gavdalanadilar.

Adabiy-tarixiy talqinda hayot haqiqatining o'rnini ko'rsatish va bunda haqqoniylik, xolislik, tarixiy haqiqatdan chekinmaslik kabi tamoyillarga amal

qilish, tarixiy shaxsning millat taraqqiyotidagi mavqeyini ko'rsatishda badiiyatning o'zni masalasi ham ijodkordan katta mahorat talab qiladi.

O'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar, mashhur siymolar haqidagi nasriy asarlarning bir qismi sho'rolar davrining 60-70-yillarida yaratildi. Bu davrda, tabiiyki, sinfiylik, partiyaviylik, zamonasozlik aqidalari o'tmishdagi shohlar, din arboblari-yu allomalar to'g'risida xolis yozishga ma'lum darajada monelik qilardi. Shu tufayli "Amir Temur, Imom Buxoriy, Termiziy, Bobur, hatto Ulug'bekning avvalgi adabiy bosqichda adabiyotimizning bosh qahramoni darajasiga ega bo'lishi mahol edi"⁹. Zero, ularning talqinida ko'pincha davr xususiyatlari hisobga olinmay, islomiy e'tiqodga munosabatlari chetlab o'tilar yoxud zamonaga moslashtirilardi.

Tarixiy romanlar bo'yicha tadqiqotlar olib borgan, tarixiy nasr yo'nalishining yirik bilimdoni, adabiyotshunos A.Kattabekov ularga xos bo'lgan quyidagi asosiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi: "1) asarning obyekt sifatida xalq va jamiyat hayotida eng muhim sanalgan davrlar, voqealar va ko'zga ko'ringan shaxslar hayoti olinishi; 2) tasvirlanayotgan davr va undagi voqealar, tarixiy shaxslarga nisbatan yozuvchi ilmiy-estetik konsepsiyasining bo'rtib turishi lozimligi, davr ijtimoiy-siyosiy xarakteristikasini yaratish; 3) yozuvchi bilan tasvir obyekt o'rtasida jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichlari bilan izohlanuvchi davriy masofaning mavjud bo'lishi; 4) tasvirlanayotgan voqealar va shaxslar hayotining chuqur badiiy tadqiq etilishi, tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga o'sib chiqishi shart ekanligi"¹⁰. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bugungi kun tarixiy asarlarini baholashda ham ana shu mezonlarga tayanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, tarixiy asarda badiiy to'qimaning ustuvorligi ham nihoyatda muhim jihatlardan biridir.

Bugungi kunda aynan istiqlol sharofati bilan tarixiy shaxslar haqida qator tadqiqotlar amalga oshirilyapti. Badiiy adabiyotda Pahlavon Mahmud, Beruniy, Jaloliddin Manguberdi obrazining o'rganilishi masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi, xususan, adabiyotshunos B.Rahimovanning "Badiiy adabiyotda Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari" mavzusidagi tadqiqot ishida tarixiy shaxs talqini uchun tipologik bo'lgan quyidagi jihatlari ajratib ko'rsatiladi:

"1. Tarixiy shaxs talqini asosini tashkil etuvchi tarixiylik tamoyili ijodkor shaxs talqiniga ham xos bo'lib, unda ijodkor shaxsiyati, davr va inson muammosi markaziy masaladir.

2. Ijodkor shaxsning adabiy-tarixiy talqini muallifning maqsad va iqtidoriga ko'ra turli janrlarda va tarixiy ilg'amlarda yaratilsa ham ularni baholashda hayot haqiqati va xolislik yagona mezondir.

3. Odatda ijodkor shaxslarni ko'p qirrali faoliyat xarakterlaydi. Ular shoir, alloma, arbob sifatidagi fazilatlarini o'zlarida mujassamlashtira olgan yaxlitlikka ega barkamol shaxs timsoli bo'lib, adabiy talqinda butun murakkabligi bilan tadqiq etilishi tasvirga tabiiylik va reallik bag'ishlaydi.

4. Adabiy-tarixiy talqinda ijodkor individualligini belgilovchi omillardan biri

⁹ Каримов Н. Бугунги кунлар сурури // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т.: 2000. 1 сент.

¹⁰ Каттабеков А. Тарихий роман хусусида баҳслар // Ўзбек адабий танқиди. Анталогия. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов. – Т.: "TURON-IQBOL"МЧЖ. 2011. – Б.232.

- uslub har bir asarda o‘ziga xos bo‘lgani holda mohiyat jihatdan asar pafosi – inson va ezgulikni ulug‘lash g‘oyasini ifodalashga xizmat qiladi”¹¹.

Biz ham Najmiddin Kubro obrazini tadqiq qilishda ma’lum ma’noda mana shu tamoyillarga suyanib ish ko‘rdik. Bilamizki, Najmiddin Kubro obrazi borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Najmiddin Kubroning o‘z ijodi bo‘yicha uning ruboiylari, tasavvufiy qarashlari bo‘yicha qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, Najmiddin Komilovning “Najmiddin Kubro” risolasi, Ibrohim Haqqulovning “Shayxlar va shahidlar Kubrosi” yirik maqolasini ta’kidlash mumkin. Kubro ijodi bo‘yicha ilk tadqiqot sifatida Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarida mukammal ma’lumotlar berilgan. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”¹² kabi asarlarida ham Kubro hayoti va ijodi, tasavvufiy qarashlari bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Allomaning tasavvufiy ta’limoti yuzasidan N.Komilov, H.Homidiy, I.Haqqul, A.Juzjoniy, U.Saidov, A.Choriyev, B.Sharif, U.Qoraboyev, O.Safarboyev, A.Bektosheva kabi bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlari e’lon qilingan. Tadqiqotlarda Najmiddin Kubroning tasavvuf ilmidagi o‘rni, inson falsafasi haqidagi qarashlari, tasavvufiy asarlarining mazmun-mundariyasi, uning tasavvufiy ta’limotida insonparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalarining ilgari surilishi kabi masalalar yoritiladi.

O‘zbek adabiyotida bu tarixiy siymo haqida qator badiiy asarlar yaratilgan. Najmiddin Kubro haqidagi asarlarning hammasi uchun realistik uslub xarakterli bo‘lgani holda, romantik uslub unsurlari Omon Matjon asarlarida yorqinroq aks etadi, X.Davron asarlarida esa tarixiy hujjatlilik ustuvorlik qiladi.

Najmiddin Kubro siymosining badiiy ijoddagi talqinlari tarixiy ijodkor shaxs konsepsiyasiga asoslanib, unda davr, inson va ijodkor shaxsiyati munosabatlari asosiy masaladir. Bu masala shayxning donishmand inson, yuksak iqtidorli shoir, fidoyi vatanparvar va avliyo sifatidagi tasviri orqali yoritildi va uni XII asr sharoitida tom ma’nodagi barkamol inson timsolida gavalantirishda o‘z yechimini topdi. Shuningdek, adabiy asarga xos tarixiy shaxs konsepsiyasining muhim sharti – tarixiy ilg‘amni voqea, shaxs, makon va zamon kabi qismlarining o‘zaro uyg‘unligi Shayx Najmiddin Kubro haqidagi asarlarga xos mushtarak xususiyatlar sanaladi.

Tarixiy asarlar uchun xos bo‘lgan yana bir asosiy jihat – asar voqealari yuz bergan davrning keng ijtimoiy xarakteristikasini bera olish, voqealar ichidan eng zarurlarini tanlay bilish va ularni badiiy talqin qilishda ko‘rinadi. Bu jihatlar Najmiddin Kubro badiiy siymosi yaratilgan Omon Matjonning “Dravaxonim” (“To‘rabekaxonim”) qissasi, “Najmiddin Kubro” fojiasi, Xurshid Davronning

¹¹ Rahimova V. O‘zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari. – Urganch. 2012. – B.37.

¹² Агтор Ф. Тазкират-ул авлиё (Авлиёлар китоби)/ Мирзо Кенжабек таржимаси. – Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. – Б.175; Жомий А. Нафахот ул-унс мин хазарот ул-кудс. ЎЗР ФА ШИ қўлёзмалари: инв. № 4409; Навоий А. Насойим ул-муҳаббат мин шамойим ул футувват. ЎЗР ФА ШИ қўлёзмалари: инв. № 5420/III. – Б.290.; Али Сафий. Рашоҳату айнил ҳаёт. Обихаёт томчилари/ Таржимон: Домла Худайберган ибн Бекмуҳаммад; нашрга тайёрловчилар: М. Ҳасаний, Б.Умрзоқ – Т.: Абу Али Ибн Сино, 2004. – Б.536.; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи / Таржимон: Б.Аҳмедов, Н. Норкулов, М. Ҳасаний – Т.: “Чўлпон” нашриёти, 1994. – Б.352.

“Shahidlar shohi” qissalariga ham taalluqlidir.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **“Tarixiy xarakter yaratishda uslubiy o‘ziga xoslik”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur faslda, asosan, tarixiy shaxs xarakterini yaratishda muallif obrazining individualligi masalasiga e‘tibor qaratilgan.

Har bitta yozuvchining dunyoqarashi, badiiy-estetik qarashi hamda obraz va voqelikni ifoda etish uslubi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Har bir adib o‘zining dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, tafakkur tarzi, Inson va Borliqni qabul qilish nuqtayi nazari, umr mohiyatini teran his etishi, shaxsiy xarakter-xususiyatlari jihatidan o‘z uslubini namoyon qiladi.

Omon Matjon uslubida shaxsiy donishmandlik ko‘zga tashlanadi; muallifning tarixiy mavzuga bo‘lgan shaxsiy qiziqishi va ijodiy imkoniyatlari keng namoyon bo‘ladi. U adabiy janr va turlarda o‘z salohiyatini to‘la namoyish eta oladi, chuqur falsafiy tafakkur va boy tajriba bilan birga badiiy iqtidorining kuchi ham aniq seziladi. Realizm uslubining imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali muallif haqqoniylikni badiiy tasviriylik bilan uzviy bog‘lab, tabiiy uyg‘unlik yaratadi.

Najmiddin Kubro hayoti bilan bog‘liq voqealar, aniq dalillar Omon Matjonning “Dravaxonim” (“To‘rabekaxonim”) qissasi, “Najmiddin Kubro” fojiasi, Xurshid Davronning “Shahidlar shohi” qissalarida to‘laqonli yoritiladi. Omon Matjon “Najmiddin Kubro” tarixiy fojiasini yozish uchun buyuk siymo haqida yaratilgan ko‘pgina manbalarni o‘rganib chiqqanligini asarni o‘qigan zukko kitobxon yaxshi anglaydi. Tarixiy manbalardan ma‘lumki, Najmiddin Kubro faoliyati Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Rashididdin Fazlullohning “Jome at-tavorix”, Abdurahmon Jomiyning “Nafohot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoim ul-muhabbat”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Ali Safiyning “Rashohotu aynil - hayot”, Sayfiddin Boharziyning “Avrod ul-ahbob va fusus ul-odob”, Ibn al-Karbaloyining “Ravzat ul-jinon”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Habib us-siyar” kabi yana ko‘plab boshqa asarlarda bayon etilgan. Shuningdek, Shayx haqida xalq og‘zaki ijodida ham qator afsona va rivoyatlar, manoqiblar ham yaratilgan bo‘lib, “Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro”, “Shayx Najmiddin Kubro qissasi”, “Ibn Xojib qissasi” kabi asarlar shular jumlasiga kiradi. Bulardan tashqari, tasavvufga oid juda ko‘plab manbalarda ham Najmiddin Kubroning qilgan xayrli amallari, martaba va mo‘jizalari haqida so‘z boradi. Omon Matjon bu asarlardan unumli foydalangan holda Shayx Najmiddin Kubro badiiy siymosini to‘laqonli yarata olgan. Fojiada muallif o‘ndan ortiq asosiy obrazlar va ko‘plab yordamchi (ikkinchi darajali) qahramonlardan foydalanadi. Fojiada yetmish besh yoshli Shayx Najmiddin Kubro, Alouddin Muhammad Xorazmshoh, uning onasi Turkan xotun, o‘g‘illari – Jaloliddin Manguberdi, Qutbiddin O‘zloq shoh (taxt vorisi), Rukniddin Gursanji, Vazir Alaviy Xevaqqiy, Abdul Jalil, Abdul Xalil, Oychechak kabi asosiy obrazlar va ular bilan bir qatorda hojib, sharobdor, da‘vatdor, munshi, darveshlar, maxfiylar, navkarlar kabi epizodik obrazlar ham mahorat bilan yoritiladi.

Qissa mazmuni va shakliga ko‘ra tarixiy konsepsiya va badiiy to‘qima sintezini aks ettiradi. Tarixiylik asardagi mashhur tarixiy shaxslar – O‘zbekxon, Qutlug‘ Temur, To‘rabekaxonim, Pahlavon Mahmud; aniq epik makonlar –

Xorazm, Ko‘hna Urganch, Xiva, Hazorasp, Amudaryo, Pitnak, Karvak kabi nomlarda namoyon bo‘ladi¹³. Bu esa shoir, faylasuf, pahlavon, javonmardiylik (mardlik) tariqatining peshvosi Pahlavon Mahmud Piriyorvaliy (1247-1326) haqida batafsil fikr yuritish, badiiy obrazining yangi qirralarini aks ettirish ehtiyojini tug‘dirdi. Omon Matjonning “Dravaxonim” (“To‘rabekaxonim”) qissasi bu yo‘nalishda yangi yutuq bo‘ldi. Qissa qahramon umrining so‘nggi yillarida Xorazmdagi hayoti hodisalari bayoniga bag‘ishlangan.

Xurshid Davronning “Shahidlar shohi” qissasi muqaddima va ikkita asosiy qismdan iborat. Tarixiy manbalarda Xorazmshohlar davlatiga oid mavzular ko‘pincha ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga e‘tibor qaratish orqali yoritiladi. Biroq Xurshid Davron o‘z asarida ma‘naviyat va ma‘rifatning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratadi.

Kitob ikki qismdan iborat. Birinchi qismda Xorazmshohlar davlatining Takash va Alovuddin Muhammad davrida kengayishi, bu davlatning ismoiliylar, g‘uriylar, saljuqiylar, qoraxitoylar bilan munosabatlari, jang-u jadallari haqida hikoya qilinadi. Asarning ikkinchi qismida esa, asosan, Shayx Najmiddin Kubro suyangan tariqat, ilm, uning tariqat yo‘li, asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar haqida hikoya qilinadi. Bu tarixiy-ma‘rifiy qissada Xurshid Davron o‘ziga xos yo‘ldan boradi. Qissada Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Xusayn Voiz Koshifiy, Ahmad Yassaviy va Najmiddin Kubroning o‘z asarlaridan foydalanadi.

Xurshid Davronning “Shahidlar shohi” tarixiy-ma‘rifiy qissasida Najmiddin Kubroning hayot yo‘li, ma‘rifat taraqqiyotidagi tarixiy xizmatlari, vatanparvarlik jasorati ta‘sirli uslubda yoritib berilgan. Asarda juda ko‘plab tarixiy obrazlar haqida ma‘lumot beriladi. Muallif nafaqat Xorazm tarixini mufassal o‘rganganligi, balki diniy-tasavvufiy manbalardan ham chuqur xabardor ekanligi namoyon bo‘ladi. Qissa ichida Qur‘on oyatlaridan, hadislardan misollar keltirish ham muallif uslubining o‘ziga xos qirralaridan biridir.

“To‘rabekaxonim” qissasi esa Omon Matjonning umr oxirida yaratgan asarlaridan bo‘lib, unda XIII asr taloto‘plari asosida mustaqillik voqealariga munosabat bildirilgan va “Diydor aziz” to‘plamiga kiritilgan. Qissaning bayon tarzida o‘ziga xos jihatni kuzatamiz. Syujet asosini Kubro o‘limidan bir asr keyingi voqelik tashkil etgani sababli Shayx joriy hodisalar, obrazlar tizimida bevosita ishtirok etolmaydi, balki u haqdagi tafsilotlar asosiy matn ortida, o‘tgan voqealarni eslash, epizod, ma‘lumotlar shaklida berib boriladi va muallif nutqiga qo‘shiladi. Qissa boshidagi Shayxga bog‘liq voqea syujetning muhim halqalaridan biri hisoblanadi. Unda vaqtlar o‘tishi bilan darz ketgan Kubro qabri gumbazini ta‘mirlash voqeasi qahramon hayotiga oid hodisa lavhalarining ochqichiga aylanadi. Mazkur o‘rindagi bayon muallif tomonidan ayni davr sathida tasvirga olinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Qahramon va voqelik munosabatida muallif ijtimoiy-estetik idealining ifodalanishi”** deb nomlangan. Bobning

¹³ Маҳмудов Ж. Паҳлавон Маҳмуд ҳаёти ва ижодий меросининг матний таҳлили. Филология фанлари номзодлиги диссертацияси. – Тошкент. 2006. – Б.200

birinchi fasli **“Qissada janr tadriji, qahramon xarakteri takomillashuvining omil va badiiylik qirralari”** tahliliga bag‘ishlangan.

Xurshid Davronning Shayx Najmiddin Kubroga bag‘ishlangan qissasi o‘zbek tarixiy qissachiligida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, unda Kubraviya tariqatining asoschisi, xalq qahramoni Najmiddin Kubro obrazi gavdalantiriladi. Yozuvchining o‘zi ta’kidlashicha, asar 1990 - 1992-yillar oralig‘ida yozilgan. 2008-yil “Fan” nashriyotida chop qilingan qissa salkam 200 sahifadan iborat. Qissa haqida adabiyotshunos olim I.Haqqulning fikrlari ahamiyatlidir: “Ushbu tarixiy-ma’rifiy qissada Najmiddin Kubroning hayot tarixi, tariqat arbobi sifatida qad rostlash jarayoni, ma’rifat taraqqiyotidagi tarixiy xizmatlari, vatanparvarlik jasorati ta’sirli uslubda yoritib berilgan. Xurshidning shoirlik va olimlik salohiyati qissada samimiy bir uyg‘unlik topgan”¹⁴.

Muallif o‘zi ta’kidlaganidek, asar yozilishi uchun juda ko‘plab tarixiy manbalar va diniy-ma’rifiy asarlarni mutolaa qilgan. Asarda tarixiy fakt-ma’lumotlar, xususan, tasavvuf tarixi va tariqatlari ta’rifiga keng o‘rin ajratilgan, tasavvufshunos olimlar asarlaridan ko‘chirmalar, ularga kichik sharhlar ham berilgan. Shuningdek, diniy-ma’rifiy manbalar, Qur’oni Karim oyatlari va hadislardan o‘rinli foydalanish ham qissaning o‘ziga xosligini ta’minlagan. Ayniqsa, qissaning birinchi bobida badiiylikdan ko‘ra hujjatlilik, tarixiy fakt va ma’lumotlarni ko‘p keltirish, sharhlar va izohlar berilishi ustuvorlik qiladi.

Yozuvchi dastlab kitobxonni davr bilan tanishtiradi. Xorazmshohlar davlatidagi siyosiy vaziyat, Chingizxon bosqini haqida aytib, tarixga nazar tashlaydi. Bu tasvir Najmiddin Kubro obrazini ochib berishda ham asosiy vosita vazifasini o‘taydi. Asardagi tarixiy haqiqatlar, tarixga oid sahnalar jonli tarzda namoyon bo‘ladi. Qissa tarixiy ma’lumotlarga boy bo‘lib, unda Kubraviya tariqatining vujudga kelishi va uning komil insonni voyaga yetkazishdagi o‘rni mahorat bilan ochib berilgan. Xurshid Davron tarixiy asarlarida shuni ko‘rish mumkinki, u tarixni puxta egallagan adib. Shoir ijodida tarixiylik yetakchilik qiladi, tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, tarixiy joylar tasviri adib asarlarining asosini belgilaydi.

Bu o‘ziga xoslik O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon (1943-2020) ijodida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tarixiy mavzu, voqealar, obrazlar tizimining turli janrlardagi ifodasi shunday fikr uchun asos beradi. Vatan tarixini chuqur bilgan shoir bu mavzuga she’r, qissa, dramatik dostonlar bag‘ishladi va 70-yillardan boshlab buyuk tarixiy shaxslar, olamshumul o‘zgarishlarni madh etdi. Ma’lumki, Omon Matjon o‘z asarlarida ko‘pincha tarixga murojaat qiladi va zamon, davr dardlarini, armonlarini tarix tili bilan aytishga intiladi.

Shoir Shayx Najmiddin Kubro “Xorazm ko‘ksidagi tumor”, “Manguberdi uchun toji nur” ekanini ta’kidlar ekan, bu fikrni kengaytirib yozadi:

Bilmay Shayx Kubro kim, Pahlavon Mahmud,
Poyi yoqmay ko‘rib Jayhun, yuz shuvit,
To‘rabek xonimning dunyosiga zid,
Necha Sulton Sinjor kelib ketadi,

¹⁴ Иброҳим Ҳаққул. Такдир ва тафаккур. – Т.:Шарқ, 2007. – Б.73.

Qum ustida minbar kelib ketadi.
Naq To‘rabek xonim, qarang, chavandoz qiz,
Bu pari kim demang, oddiy bir ma’suma¹⁵

Bu o‘rinda yetti misraning yaxlit mazmunida bir tarixiy makon – Xorazm, Ko‘hna Urganch, uchta zamon zuhurlangan: 1) Kubro davri – XII-XIII asrlar; 2) Pahlavon Mahmud va Xorazmning dono, tadbirkor malikasi To‘rabekaxonim hamda Amudaryoga to‘g‘on bosgan dushman – salbiy to‘qima obraz Sulton Sinjor yashagan XIII-XIV asrlar; 3) “Chavandoz qiz” suvrati – malika timsolining chizilishi hozirgi zamon. Zamonlar aro bunday farqlar tarixiy ilg‘am doirasida bo‘lib, muallifning ijtimoiy-estetik ideali va zamonasining ruhi bilan uzviy epik jarayon sifatida sintezlanib, tasvir yo‘nalishida xronikal tadrijiy izchillikni ta’minlaydi.

Shoir “Diydor aziz” to‘plamida ham an’anaga muvofiq, asosan, tarixiy mavzudagi asarlarini bir joyga yig‘adi. To‘plamga jamlangan asarlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. She’rlar. Kubro nomi 5 ta she’rda (“Shukrona”, “Diydor”, “Iymon”, “Ey, sirli diyor, Xorazm...”, “Muborak, yurtim, bu yog‘du...” qayd etiladi (ishimizda ularni tahlil qilish maqsadi qo‘yilmagan);
2. “Dravaxonim” (“To‘rabekaxonim”) qissasi;
3. “Shayx Najmiddin Kubro” tragediyasi.

Muallif maqsadi va janr xususiyatiga ko‘ra qahramon tasviriga yondashuv hajm, ifoda usuli va syujet tizimi turlichadir. Jumladan, qissa to‘laligicha Xorazm malikasi sarguzashtlariga bag‘ishlangan bo‘lsa ham Shayxga oid voqealar “Shayx Najmiddin Kubro yodi”, “Buyuk merosim” boblarida hikoya qilinadi.

“Dravaxonim” (“To‘rabekaxonim”) qissasining bayon tarzida bir o‘ziga xos jihat mavjud. Syujet asosini Kubro o‘limidan bir asr keyingi voqelik tashkil etgani bois Shayx joriy hodisalar, obrazlar tizimida bevosita ishtirok etolmaydi, balki u haqdagi tafsilotlar asosiy matn ortida, xotiraviy (eslash), epizod, obraz, ma’lumotlar shaklida beriladi va muallif nutqiga qo‘shiladi. Bunday uslub, nazarimizda, ikki holatni oydinlashtiradi: 1) tarixiy zamonlarning badiiy talqinida nisbiy yaxlitlikni shakllantirib, “retrospektiv” syujetni vujudga keltiradi; 2) turli voqea va obrazlar tizimidagi asosiy unsur hamda vositalarning o‘zaro singishuvi asarga bir butunlik bag‘ishlaydi va muayyan kompozitsion-uslubiy vazifa bajaradi.

Qissada Chingizxon qo‘shinlarining Xorazmga bosqini, “Chingiz qo‘shini poytaxtga andak yaqinlashganda Turkon xotun va xoslari olti oylik oziq-yemishni olib, Xorazm janubi-g‘arbidagi olis bir Shahrstonga yashirinib olishga va mo‘g‘ullar ularni topib, asir qilib shaxsan Chingizxon huzuriga yetkazganlar. Turkon xotunni ulov bermay piyoda olti oy otga sudratib, ul “Biyik o‘tov”ga yetkazishib, umrining oxirigacha sarqit yeb yashashga majbur etishgan”¹⁶.

Bu o‘rinda Kubroning ushbu voqeaga munosabati matn tagzaminiga yashiringan bo‘lib, muallif buni ikki holat bilan asoslaydi: 1) Shayxning yog‘iy bosqini oldini olish va Turkon xotun sotqinligiga qarshiligi avvaldan ham

¹⁵ Омон Матжон. Дийдор азиз. – Т.: “Noshir”, 2011. – Б.159

¹⁶ Омон Матжон. Дийдор азиз. – Т.: “Noshir”, 2011. – Б.111

ma'lumligi; 2) o'zining "Shayx Najmiddin Kubro" tragediyasida bu lavhani batafsil tasvirlagani sababli ortiqcha takrordan qochadi. Shuningdek, Vatan va xalq xiyonatkori timsoliga aylangan Turkon xotun yovuzligidan kitobxon jirkangan sari To'rabekaxonim tiynatidagi eliga sadoqat, mehr-oqibat va xaloskorlik kabi fazilatlarini chuqurroq anglash tuyg'usi osha boradi. Ikkinchidan, Kubro safdoshlari Jaloliddin va Temurmaliq jasoratlari haqidagi ma'lumotlar qisqa badiiy aspektda bo'lgani tufayli ular epizodik obraz maqomida tasavvur qilinadi.

Yuqorida tahlilga tortilgan ikkala qissada ham tarixiy shaxslar, xususan, Najmiddin Kubro obrazi badiiy talqinida har bir adibga xos uslub namoyon bo'ladi. Najmiddin Kubro portretining muhim qirrasini: nurli qiyofasini, beqiyos qudrati va ilohiy siymoligini bevosita konfliktlar jarayonida tasvirlash – adabiy asarlardagi tipologik xususiyatdir. Lekin u har bir adibda betakror tarzda voqe bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli **"Syujet yaxlitligida "davr, shaxs, muallif" uchligi sintezi"** deb nomlangan.

Xurshid Davronning "Shahidlar shohi", Omon Matjonning "Dravaxonim" qissalari syujeti tarixiy fakt va voqelik bilan badiiy to'qima asosiga qurilgan. Darhaqiqat, tarixiy faktlar va real hodisalar yozuvchilar uchun katta imkoniyatlar beradi. Lekin hamma gap ularni muayyan maqsadni ifodalash yo'lida to'g'ri saralay bilish, teran baholash va yuksak badiiy shaklda talqin eta olishdadir.

Xurshid Davronning "Shahidlar shohi" qissasida bevosita Najmiddin Kubro hayoti, uning yetuk tariqati, avliyoligi, komilligi va vatanparvar sifatidagi badiiy siymosi gavdalantirilgan. Ushbu qissada bu motivlarning muayyan darajada ifodasi mavjud bo'lsa ham, "inson va jamiyatga qaratilgan"i asosiy o'rinda turadi va qissaning tarixiy xarakterini aks ettiradi. Mazkur qissa kompozitsiyasi ana shu mohiyatni ifodalashga qaratilgan bo'lib, quyidagicha qismlarga ega:

- 1) muqaddima va xotima;
- 2) ikki bobdan iborat o'zak syujet yo'nalishi;
- 3) mustaqil rivoyatlar, Qur'oni Karim oyatlari va hadislardan parchalar, tasavvuf haqidagi kitoblardan olingan ko'chirmalar.

Qissaning yaxlit tarkibini shakllantiruvchi bu qismlarga xos mushtarak xususiyat – ulardan har birining Shayx Najmiddin Kubro siymosi talqiniga bevosita aloqadorligidir. Shu bilan birga ular o'ziga xos shakly-uslubiy funktsiya tashiydi. Jumladan, kompozitsion qoliplash usuli orqali boshdan oyoq davom etuvchi o'zak syujet voqealari vaqtincha to'xtatilib, o'rtada tasavvuf ta'limoti haqida fikrlar, bayon etiladi.

"Dravaxonim" Omon Matjonning Xorazm tarixiga oid epik asarlari turkumiga mansub bo'lib, XIV asr voqealaridan bahs etadi, avvalgi doston va qissalaridagi ayrim qirralarni to'ldirish, boyitish yoxud izohlashga yordam beradi. Asar haqida ilk fikr bildirgan adabiyotshunos J.Jumaboyeva o'zining "El bilsa bo'ldi" monografiyasida asarni xolis baholab, muayyan fikr va takliflarni o'rtaga tashladi. Jumladan, "Ming bir yog'du", "Pahlavon Mahmud", "Beruniy" asarlari qatorida "Dravaxonim (To'rabekaxonim)", "Shayx Najmiddin Kubro", "Xorazmiyning to'rt sayohati va sakkiz bashorati" asarlarini "badiiy kashfiyot" sifatida ta'riflagan akademik N.Karimov yozadi: "Bu asarlarning bir qismi dostonlar, boshqa qismi

she'riy dramalardir. Ayrimlarining janrlari esa haligacha aniqlangan emas”¹⁷. Bu fikrga, avvalo, “Dravaxonim” janri xususidagi quyidagi mulohazasi asos bo‘lgan: “Birinchidan, bu asar haqida fikr yuritganda, u qissa janrining talablariga to‘liq javob beradimi? – degan savol tug‘iladi. Balki, asarni qissa demasdan tarixiy-ilmiiy-badiiy asar deb atasa, to‘g‘ri bo‘larmidi. Chunki shoir unda, avvalo, tarixni chuqur o‘rgangan tadqiqotchi sifatida ko‘rinadi. “To‘rabekaxonim (Dravaxonim)”da tarix haqiqatlari, falsafiy qarashlari maromiga yetishi uchun jiddiy ishlov kerakday seziladi”¹⁸.

Asarning umumiy tahlili bu fikrlar ancha bahsli, hatto e’tirozli ekanini ko‘rsatadi. Ma’lumki, boshqa janrlar kabi qissa ham ijodkorning voqelikni badiiy o‘zlashtirish, asar tizimi unsurlari o‘rta epik tur talablariga moslash, yetakchi qirralarini estetik-uslubiy mezonlar asosida “sayqallash” asosida yaratiladi. Ushbu asarda ham shu talablarga amal qilingan. Janrning muhim belgisi voqelik markazida bir (bu o‘rinda To‘rabekaxonim) yoxud ikki obrazning turishi, syujet va poetika sintezini asosiy maqsad ro‘yobiga xizmat qilish, tasvir va ifodaning ta’sirli, ishonchli bo‘lishi va h.k.

Nazarimizda, “Dravaxonim” qissa janrining mukammal namunasi bo‘lib, unda tarixiy, mardlik, bunyodkorlik, xaloskorlik kabi fazilatlar uyg‘unlashgani bois uni tarixiy-falsafiy qissa deb atash to‘g‘ri bo‘ladi. Muhimi shundaki, hozirgi zamonaviy nasriy asarlar, jumladan, qissalar ham xalq ijodi nasrining an’anaviy namunalari bilan ichki mantiqiy bog‘liqlikka ega. Chunonchi, ular qatlarida o‘tmishga mansub bir unsur, ifoda, tasvir va obrazning bo‘lishi turli miqyos va darajada, real voqelikning rivoyatda yorqin, hayotiy uydirma (xayoliy uydirma emas!) bilan aks ettirilishi ana shu aloqadorlikning ifodasidir. Bu jarayonda, tabiiyki, ijodkor iste’dodi, mayli, uslubiy individualligi asosiy omil bo‘lib, an’anaviylik bilan novatorlikni, obyektning yangicha talqin, yondashuv bilan takomillashtirishga erishadi.

Ikkinchidan, qissa yaxlit evolyutsiyasida xalq nasri janrlaridan quyidagi jihatlar bilan farqlanadi:

1) ertak, afsona, rivoyatda syujet asosini deyarli To‘rabekaxonimning suv uchun kurashi motivi tashkil etsa, qissada epik tizim ancha ko‘lamdorroqdir;

2) folklor namunalarida lokal variantlashuv faol bo‘lib, qahramonning yakka o‘zi jangda dushmani mag‘lub etishi arxaik eposga xos xususiyatdir. Qissada esa bu holat jamoa kurashi shaklida namoyon bo‘ladi. (To‘rabekaxonim va Doston boshliq qizlar jasorati);

2) qissada xalq nasri asarlariga nisbatan tarixiy shaxslar, ma’lumotlar va realistik lavhalar miqyosli bo‘lib, umumiy talqinda moziy va hozirgi davr aloqadorligi masalalariga subyektiv munosabat ham zuhur etilgan. Bu xususiyatlar qissa mazmun-mundarijasidagi og‘zaki va yozma evrilishlardan guvohlik bo‘lib, muallif ular mohiyati, mezonlarini yaxshi anglagan.

Qissa mazmuni va shakliga ko‘ra tarixiy konsepsiya hamda badiiy to‘qima sintezini aks ettiradi.

¹⁷ Каримов Н. Бу дунё бир тилсимдир, шеърят ҳам тилсим. “Эл билса бўлди” монографиясига сўзбоши. – Т.: “Истиқлол”. 2018. – Б. 6-7.

¹⁸ Yuqoridagi manba. – B. 149-150.

Tarixiylik mashhur real shaxslar – O‘zbekxon, Qutlug‘ Temur, To‘rabekaxonim, Pahlavon Mahmud, aniq epik makonlar – Xorazm, Ko‘hna Urganch, Xiva, Hazorasp, Amudaryo, Pitnak, Karvak tushunchalarida namoyon bo‘ladi. Ular o‘rtasida kechadigan voqealarda muallifning badiiy tafakkuri, to‘qimasi ana shu tarixiylik fonida muayyan vazifa bajaradi va umumiy syujet yo‘nalishlariga singib ketadi. Bu yo‘nalishlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Bunyodkorlik va me‘morchilik sohasidagi ishlar tafsilotlari.

2. Sinjorning Hazoraspdan Amudaryoga to‘g‘on bosishi va To‘rabekaxonimga “oshiq”ligi sarguzashtlari.

3. Miroblik va kanal qazish tasviri.

4. To‘rabekaxonim tadbiri – mardlik va g‘alaba garovi ekanligi talqini.

Muhimi shundaki, ushbu syujet shahobchalarining barchasida To‘rabekaxonim faoliyati oldingi o‘rniga chiqsa ham Pahlavon Mahmud ularda turli miqyos va darajada qatnashadi. Zero, u malikaning maslakdosh madadkori, dono maslahatchisi sifatida tasvirlanadi.

Qissa syujet to‘qimasida ikkala pir – ustozlar turlicha talqinda namoyon bo‘lishadi. Bu – ularning asardagi o‘rni, estetik funksiyasining o‘ziga xosligi natijasi bo‘lib, muallif idealiga muvofiq keladi. Chunonchi, asar hajmi ancha salmoqli – 17 bobning 6 tasida Shayx Najmiddin Kubro, 9 tasida Pahlavon Mahmudning turfa holatdagi faoliyatlari hikoya qilinadi. Voqealar bayoniga ko‘ra Kubro epizodik, Pahlavon Mahmud asosiy obrazlardan biri.

Asarning syujet qurilmasi tarixiy asarlar an‘anasiga asoslangan: o‘tmishda yashagan kishilar hayoti va yuz bergan voqealar yoki joriy hodisalar haqida hikoya qilinadi. Nisbatan turg‘un bu shaklda syujetning ikki qatlamini ko‘ramiz:

1) real – joriy qatlam;

2) xotira – eslash qatlami. Birinchisida muallif yoxud personaj nutqida ayni vaqtdagi hikoyalar aytilsa, ikkinchisida moziyga tegishli ma‘lumotlar, xarakter va lavhalar xotira – eslash orqali ifodalanadi. Muhimi shundaki, xotira qatlamdagi esga olingan dalil va ta‘rif mohiyatan biron jihati bilan real qatlamdagi syujet uzvlariga bog‘langan, ularni ifodalagan yoki to‘ldirgan bo‘ladi.

Xulosa shuki, Omon Matjonning “Dravaxonim” qissasi so‘nggi davrda tarixiy mavzuda yaratilgan sara asarlardan biri bo‘lib, unda Najmiddin Kubro vafotidan keyingi davr, avliyo qo‘ningohini tiklash yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan Pahlavon Mahmud faoliyatining me‘mor, mirob, dono maslahatchi va tabiblik kabi yangi qirralari yoritilgan. Bu esa donishmand, shoir va tengsiz polvon haqidagi mavjud bilimlarimizni yanada mustahkamlash va boyitishga xizmat qiladi. Mard va oqila ayol malika To‘rabekaxonim obrazi zamondoshlar qalbida g‘urur tuyg‘ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Undagi xalqchil g‘oyalar zamondoshimiz uchun boqiy ma‘naviy qadriyat ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi “**Kubro fenomeni – milliy qahramon va jahoniy ibrat timsoli**” deb nomlanadi. Bobning “**Tarixiy qahramon ifoda yo‘nalishida jismoniy va ma‘rifiy qudrat uyg‘unligi**” deb nomlangan birinchi faslida O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning “Shayx Najmiddin Kubro” fojiasi tahlilga tortilgan bo‘lib, unda Shayx Najmiddin Kubro hayotining o‘z yurti – Xorazmda kechgan so‘nggi davrlari qalamga olinadi. Bu davrda Xorazmda

Alouddin Tekashning o'g'li Qutbiddin Muhammad hukmronlik qilgan. Shu davr voqeligini, o'sha tarixiy jarayonni shoir dramatik janr imkoniyatlari darajasida badiiy aks ettiradi. Tarixiy fojida Omon Matjon 75 yoshlardagi Shayx Najmiddin Kubroning tasavvuf allomasi, ma'naviy-ruhiy, jismoniy qudrat egasi va eng muhimi – yurt qahramoni, milliy vatanparvar sifatidagi adabiy-tarixiy obrazini yaratishga harakat qiladi. Dastlabki pardada Abdul Jalil bilan Jaloliddin Manguberdining jiyani Oychechak suhbatida Najmiddin Kubroning bashoratgo'y avliyo ekanligi, juda sergak va ziyrakligi, ulug' pir bo'lganligi badiiy lavhalarda tasvirlanadi. Tabiiyki, epik makon va voqealarning qamrovi obrazlar tizimiga yondashuvda ham o'ziga xoslikni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu hol badiiy asardagi real tarixiy shaxslar va to'qima obrazlar tasviridagi xolislikka intilishda ko'rinadi. Shu jihatdan tragediyada ishtirok qilgan personajlarni ijobiy va salbiy xarakter mohiyatiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1) ijobiy xarakter mohiyatiga ko'ra: Shayx Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Rukniddin Gursanji, Abdul Jalil, Abdul Xalil, Oychechak, Xevaقيy va boshqalar;

2) salbiy xarakter mohiyatiga ko'ra: Xorazmshoh, Turkon xotun, Qutbiddin O'zloq shoh, Xumor Tegin, Ibn Qafraj Bug'ro, O'degey, Jebe Qoon va boshqalar.

Tasavvufshunos olim N.Komilovning ta'kidlashicha: “Najmiddin Kubroning holatlari shunday ekanki, u kishi ba'zan birdan jo'shib, o'zga kayfiyatga kirib, vujudlari balqib ketar ekan, ba'zida esa hazin va o'ychan, g'oyat kamgap bo'lib qolar ekanlar. Ba'zan esa xushchaqchaq va ochiq chehra bilan suhbatga berilar, g'oyat nozik did va o'tkir so'zlar bilan muridlar qalbiga olovli cho'g' tashlar, turli ishoralar, harakarlar, ruhiy karomatlar orqali atrofdagilarni hayratga solarkan”¹⁹. Xuddi shunga mos holatlar tragediyada badiiy in'ikosini topadi va muallif tarixiy haqiqatni mohirlik bilan obrazli gavdalantiradi.

Omon Matjon Najmiddin Kubroning favqulodda ma'naviy hamda jismoniy quvvat egasi ekanligi tasvirini dastavval Abdul Jalil obrazi orqali beradi. Asarning ilk sahnasida Abdul Jalil bilan Jaloliddin Manguberdining jiyani Oychechak o'rtasidagi suhbat orqali Najmiddin Kubroning bashoratgo'y avliyo ekanligi, o'ta sergak va ziyrakligi hamda zohirlikni ochib beruvchi pir sifatidagi siymosi badiiy tasvirlarda yoritiladi. Abdul Jalil Oychechakka qarata: “Pirim Gurganjday ulug' shaharda o'zga bir begona qadamlar ovozi eshitganlarini aytdilarkim, goh chini, goh kinoyasini anglab bo'lmas”, - deydi. Xorazmshoh hali Chingizxon tahdididan bexabar ravishda xush kayfiyat va osoyishtalikda yashar ekan, Turkon xotun esa o'z urug'-aymog'ini boyitish maqsadida nafsiy hasratlarda “huzurlanib” yurgan paytda Shayx Kubro ushbu ofat va baloning oldindan kelishini sezganligini ko'rsatadi.

Yoki yana bir misol, O'zloq shoh Abdul Jalilning Shayx Hazratlariga juda kuchli sadoqati va e'tiqodini ko'rib, unga “mening qulim bo'lursen”, - deb unga josuslik qilib, xonaqohga kelib-ketuvchilar, bu yerda bo'layotgan gap-so'zlardan xabardor qilib turishni buyuradi. Tabiiyki, Abdul Jalil bu razillikni rad qiladi va shunda O'zloq shoh unga qilich sermaydi. Abdul Jalil qo'lidagi latta bilan qilich

¹⁹ Комилов Н. Нажмиддин Кубро. – Т.:А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – 1995. – Б. 20.

tig'ini o'rab oladi va: "Shahzodani go'yo quchoqlab suyganday shunday qisib- ezadiki, qo'lidan qilichi tushadi. Ikki navkar yugura yordamga keladi. Abdul Jalil ularni ham jilmayganicha quchog'iga olib ancha ushlab turadi". Dastlabki pardadagi bu lavhada Kubraviya ta'limotini chuqur bilgan Omon Matjon Shayxning ilohiy va jismoniy qudrati mujassamini aynan mana shu o'rinda Abdul Jalil obrazi orqali mahorat bilan bera olganligi ko'rinadi.

Tragediyaning keyingi pardalarida konfliktning yanada keskinlashuvi kuzatiladi. Asarning ikkinchi pardasida shoh saroyi tasviri beriladi. Bunda Shayx Najmiddin Kubroning Xorazmshoh saroyiga borishi va bu yerda uning shoh, valiahd shahzoda O'zloq shoh, Turkon xotun va boshqalar bilan muloqoti tasvirlanadi. Xorazmshoh xarakterini yaratishda Omon Matjon uning har bir harakatini, so'zlarini ifodalashda tarixiylik va badiiylikni kuchli mahorat bilan uyg'unlashtiradi. Davlat, xalq taqdiri hal bo'layotgan chigal bir pallada Xorazmshohning oldin may ichib keyin elchilarni qabul qilishi ham o'z shaxsiy maylini Vatan, millat manfaatidan ustun qo'yganligini ko'rsatadi.

Omon Matjon salbiy obrazlar talqinida ham bugungi kun uchun muhim gapni aytishga, ularning xatolaridan xulosalar chiqaradigan jihatlarni kitobxonga ko'rsatishga e'tibor qaratadi. Muallif Alouddin Xorazmshoh va Turkon xotun dialogi orqali bu ikki tarixiy shaxsning xarakteridagi ma'naviy tubanlik, hokimiyatga o'chlik, taxtparastlik kabi illatlarni juda yorqin bo'yoqlarda gavalantiradi. Jumladan, Turkon xotunning portreti nihoyatda salobatli, kibr-u havoli, shohona libosda, o'z mavqeyidan g'oyat mag'rur va masrur bir holatda tasvirlanadi. Malika Shayxga qarata: "Saltanatning o'g'ir yuki mening yelkamdadir!", - deganida o'g'li Alouddin Muhammadning tizgini o'z qo'lida ekanligini yana bir bora eslatib, Shayxni davlat ishlariga aralashmaslik, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lib o'tirishini ta'kidlab, xonaqohga yo'llaydi. Shayx ketgach Turkon xotun darhol avzoyini o'zgartirib, asl qiyofasiga qaytadi va o'dag'aylab Xorazmshoh ustiga boradi. Uning tilidagi Alouddin Xorazmshohga qarata aytilgan: "Muddaolar bo'lakchami, Xorazmshoh?!", "Ko'zingizni oching, Xorazmshoh!", "Sizga pishirib qo'yibdimu?!", "Musallasning qurti miyangizni tamom qilibdi, Xorazmshoh!", "Mening tagi past urug'dan qarindoshlarim yo'q!" (Jaloliddinga nisbatan), "Tezroq O'zloq o'lsa-yu, voris yana Jaloliddin bo'lsa!", "To'qson yoshli aynigan kallaga Chingiz ko'z tutib turibdi!" (Najmiddin Kubroga nisbatan), "Bir yaloqxo'r kam" (Oychechakka nisbatan) kabi kesatiq va haqorat so'zlar Turkon xotun xarakterini to'laqonli ko'rsatishga qaratilgan.

Tarixdan ma'lumki, o'limidan sal oldin Alouddin Xorazmshoh taxt vorisligini O'zloq shohdan olib, Jaloliddinga vasiyat qiladi. Biroq Turkon xotun o'g'lining vasiyatiga amal qilmay, ukasi Xumor teginni Gurganj sultoni deb e'lon qildiradi. Dramaturg bu pardada shu jarayonni ta'sirli qilib yoritadiki, Turkon xotun xarakterining asliyatga mos qiyofasi kitobxon ko'z oldida yorqin namoyon bo'ladi. Shayx Najmiddin Kubro ko'z o'ngida bo'layotgan bu holatlarga qarata: "Yovuzlar – fitnakor, xudkashlar – emin-erkin, adovat yo'llari to'silmagan zamonda yaxshilar ko'nglida aziz xislatlar susayadi, eranlar ko'kragida shijoat alangasi pasayadi, fayz-u fazilatlat o'rnini tahluka, sabrsizlik oladi. Bugun biz yurt, vatan qalbiga eltguvchi yo'lga tushmagimiz, barchamiz uy-elat, manzillarimizga qaytib,

fuqarolarni hushyorlikka, himoyalanişga undaydirgan vaqt keldi, ko'nglimiz shunday sazoni tuydi"²⁰, - deydi. Omon Matjon tragediyada Xorazmshoh, Turkan xotun, Jaloliddin, O'zloq shoh kabi qator tarixiy va Abdul Jalil, Abdul Xalil, Oychechak, maxfiylar kabi to'qima obrazlar vositasida Shayx Najmiddin Kubroning turli vaziyatlardagi jismoniy, ruhiy, ma'naviy qiyofasini juda hayotiy va ta'sirli yarata olgan.

Bobning ikkinchi fasli **“Fojiaviy qismatda ruhiy-optimistik pafos in'ikosi”** deb nomlanib, unda O. Matjonning “Shayx Najmiddin Kubro” asari tarixiy-fojiasi tahlilga tortiladi. Tragediyada qalamga olingan Muhammad Xorazmshoh hukmronlik qilgan yillar tarixda juda murakkab davr sifatida iz qoldirganligi tarixdan ma'lum. Shu bois Alouddin Muhammad Xorazmshoh, uning onasi Turkon xotun, o'g'illari Jaloliddin Manguberdi, O'zloq shoh, Rukniddin Gurganji, ulug' donishmand, mutasavvuf olim, Kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro kabi bir qator tarixiy shaxslarning tarix haqiqatiga uyg'un badiiy siymosini gavdalantirish ham ancha murakkab yumush sanaladi. Ayniqsa, dunyo tamaddunida o'ziga xos o'rin tutgan, beqiyos ilm va karomat sohibi Shayx Najmiddin Kubrodek katta shaxsiyat egasining badiiy obrazini yaratish ijodkordan katta mas'uliyat talab qiladi. Shuningdek, fikrimizcha, haqiqiy ijodkor hech qachon tasodifiy obraz tanlamaydi, o'z badiiy niyatini, ko'zlagan maqsadg'oyasini ma'naviy-ruhiy olami bir-biriga yaqin, qalb kechinmalari uyg'un bo'lgan qahramonlar orqali ifoda etadi. “Yetuk tarixiy asar yaratish murakkab jarayon – tarixiy voqealar va o'sha davrda yashagan tarixiy shaxs obrazini maromiga yetkazib tasvirlashga borib taqaladi.

“Shayx Najmiddin Kubro” tragediyasida asl fojiani yuzaga keltiruvchi tragik konflikt-to'qnashuvlarlar faqat Najmiddin Kubro bilan emas, balki asarning boshqa qahramonlari o'rtasida ham yuz bergan. Jumladan, Jaloliddin Manguberdi → O'zloq Shoh, Turkon xotun → Jaloliddin Manguberdi, Turkon xotun → Alouddin Xorazmshoh kabi tarixiy qahramonlar o'rtasida tasvirlanadi. Tragediyada voqealar asosini tashkil etuvchi tayanch qismlar quyidagilar:

1. Shayx Najmiddin Kubroning xonaqohda muridlar bilan din-u tariqat, inson va hayot, vatan va umr mazmuni kabi turli mavzularda savol-javob qilishi.

2. Yosh shogirdi, norasida Abdul Xalilning o'limi va Shayxning hadsiz alam chekishi.

3. Xorazmshoh va Turkon xotun bilan yurt boshiga kelayotgan ofat – mo'g'ul bosqini haqidagi murosasiz suhbat.

4. Shayx umrining so'nggi kunlarini ham xalqiga bag'ishlashi va Vatan yo'lida jonini fido qilishi.

Bu yo'nalishlarning har birida tarixiy qahramonga xos muayyan fazilatlar aks etadi va pirovardida uning jismoniy va ma'naviy komilligini yaxlit gavdalantiruvchi siymosi namoyon bo'ladi. Voqealar rivoji davomida dunyoviy va diniy ilmlar ulamosi bo'lgan Shayxning nafsni jilovlovchi jo'mardlik, ilohiy-ma'naviy kuch-quvvatga sohiblik, karomatgo'ylik, ezgulik va epcillik, najotkorlik va vatanparvarlik, mardlik va qahramonlik kabi xislatlari ifodalanadi. Ayniqsa,

²⁰ Омон Матжон. Дийдор азиз. – Т.: “Noshir”, 2011. – Б. 68.

Najmiddin Kubroning Vatan yo'lida mardlik ko'rsatib jon berishi, bu uning taqdirida borligi va o'zining fojeaviy qismatini oldindan his qilishi tragediyada juda ishonchli tasvirlanadi.

Tragediyada Shayx Najmiddin Kubro obrazi tarixiy manbalarda tasvir etilgan barcha xislat-fazilatlari, ilohiy kuch-qudrat-u karomatlari bilan badiiy ifoda etiladi va uning o'z fojeaviy qismatini oldindan bilgan bashoratgo'y, avliyo zot bo'lganligiga ham alohida urg'u beriladi.

Tragediyadagi ilk fojia – o'z akasiga qalqon bo'lgan Abdul Xalil o'limi lavhasida ham Shayxning insoniy tuyg'ulari, noiloj ahvoli juda ta'sirli beriladi. Muallif asarda XIII asr Xorazmshohlar davlatidagi ijtimoiy munosabatlar, siyosiy vaziyat, davr ruhi, jamiyat hayoti va tarixiy jarayonni Abdul Xalilning o'limi voqeasi orqali ifodalaydi. Dramaturg bu tragik holatni juda ta'sirli, sa'j usulida kuchli emotsionallik va ohangdorlik bilan tasvirlaydi. Abdul Xalilning jonsiz tanasini ko'rgan Shayx Najmiddin Kubro uning tepasiga borib cho'kkalaydi, yuz-ko'zlarini silaydi va bolalik iforlari bilan tirik vujudini quchoqlaydi. Bolaning akasi Abdul Jalil esa Shayxga O'zloq Shohni ko'rsatib, "Qilichi qon, ko'zi, qo'li qon" shahzodaga otiladi. Shunda Shayx Najmiddin Kubro g'azabi ichiga sig'may turgan Abdul Jalilga qarata: "Abdul Jalil! Qayt izingga! (Sekin, o'ziga o'zi gapiradi. Tiklanadi) Qani ul qotili darbadar?! Qani ul davron erkasi – qo'llarida zahar?! Qani ul go'daklarni o'ldirib – bo'lguvchi muzaffar? Qani ul noibi Mashhar? (O'zloq shohga parvo qilmay davom etadi) Hay-hay! Miyasi aynigan shayx! Kimlarni izlayapsan?! Atrof qotilga, josusga to'la paytda-ya! Bu yurtga mo'g'ul na hojat! Bo'lak yog'iy na darkor?! Aslida ham shu kunlarga yaqinlashib qoldik chamasi!". Najmiddin Kubro so'zlarida zamon suvrati, u yashagan muhit jonlantiriladi

Tragediyada fojealar ko'p, ammo optimistik ruh – kelajakka umid, inson tafakkuri va ezgulikning tantanasiga ishonch bor. Bu ishonch Najmiddin Kubroning so'zlarida, uning dushmanlarga tik boqishida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, Najmiddin Kubro ko'pchilik so'fiy shayxlar kabi shoirlik iqtidoriga ham ega bo'lib, ruboiy yozish bilan shug'ullangan. Omon Matjon shu boisdan tragediyada Shayx Najmiddin Kubroning bu jihatini ham e'tiborda tutadi va uning nutqi she'riy ohangdorlik kasb etadi. Bu o'z navbatida asar badiiyatining yuksalishiga, ta'sirchanlikni oshirishga ham yordam beradi. Bunga Shayxning Abdul Xalilning jasadi ustiga borib, nadomat bilan aytgan quyidagi so'zlarini misol sifatida keltirish mumkin: "O'qiyman, degan eding, qalaming qoldi. Intilgan, tanib ulgurmagan olaming qoldi, Evimizga bir lahzalik shodlik bo'lib kelgan ekansan, ketding, cheksiz alaming qoldi...". Yoki, uni oxirgi manzilga kuzatayotganda aytgan: "Oltin tuyoq qulunim, yiqilganin ko'rdimmu? Tog' ustinda ko'k jilg'a quriganin ko'rdimmu? Yalanglikda ko'm-ko'k o't qovjirashin ko'rdimmu? Maloiklar qo'lida ko'zgu chil-chil sindimu? Ilkimdagi kakku qush pari yerga tushdimi? Erlar nochor uvillashar, oxir zamon bo'ldimu?". Bu zulm va zolimlarga qarata aytilgan isyonkor qalb nidosidir. Tragediyadagi eng shiddatli voqealar silsilasidagi holatlarning har birida Shayx Najmiddin Kubro xarakteridagi yangi qirralar shunday tarzda goh epik bayon, goh lirik-psixologik kechinma orqali ochila boradi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Chingizxon Najmiddin Kubroga bir necha marotaba xat yuborib, yaqin kishilarini olib Gurganjdan chiqib ketishiga ruxsat berishini aytadi. Ammo Najmiddin Kubro buni rad qiladi. Ma'lumki, manbalarda Shayx Najmiddin Kubroning vafot tarixi xususida ilmda ziddiyatli fikr-mulohazalar aytilgan bo'lib, bu boradagi qarashlarga tadqiqotchi A.Bektosheva quyidagicha fikr bildiradi: "Bu hol ayrim tarixiy, shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarda ham o'z aksini topgan. Biz ham bir necha tarixiy manbalarga, shuningdek, Shayx Najmiddin Kubroning halifalari bo'lmish Najmiddin Doya va Alouddavla Simnoniylarning ma'lumotlariga asoslanib, Najmiddin Kubroning 1221-yil mo'g'ullar tomonidan shahid etilishi eng ishonchli ma'lumot, degan qarorga keldik. Bu borada shoh va shoir Muhammad Shayboniyning ta'rixidan boshqa O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan Ahmad Kashmiriyning "Shajarayi tabaqoti mashoyix" asarida keltirilgan ta'rixlarni ham e'tibordan soqit qilmadik"²¹. Gurganj mudofaasida mo'g'ullar tomonidan o'ldirilgan, Vatan yo'lida shahid ketgan buyuk Shayx Najmiddin Kubro fojiasi asarda juda ta'sirli va ishonchli ifoda etiladi.

Kitobxonni olamning va odamning mohiyati to'g'risida falsafiy mushohadakorlikka undaydigan parchalar asarda juda ko'p bo'lib, ular orasida eng ta'sirchanlaridan biri sifatida muallifning Najmiddin Kubro tilidan aytilgan Vatan, uning ozodligi haqidagi qarashlari ifodasidir. Shayx hazratlari Vatanga kelayotgan kuchli xavfni oldindan sezadi va ko'rgan tushini bayon qiladi: "Bepoyon Xorazm davlati esa o'chakishgan bulutlar-u chala zulmat g'ira-shirasida, uzuq-yuluq shamollar tatalagan, aftoda va tashlandiq edi! Qo'rg'on-u shahristonlar ichkaridan qulflangan, ichidan o'pirilmoqda! Qo'shinlar mavhum janglar ilinjida, garang. Saltanat – har yog'i ochiq va egasiz: shaqol-u tulkilarga o'yingoh..." Ma'lumki, Najmiddin Kubro tush vositasida ko'p narsalarni bashorat qilib, ro'y beradigan voqealarni oldindan bilganligi ham tarixiy manbalarda qayd etilgan. Tragediyada Gurganjning birdaniga g'oyib bo'lish voqeasi Najmiddin Kubroning ilohiy siymo ekanligini ko'rsatsa, Vatan haqidagi qarashlari, qalbni larzaga soluvchi haroratli fikrlari, ezgulik yo'lida jismonan "mag'lub"likdan ma'naviy g'oliblikni ustun qo'yishi komillik va vatanparvarlik sifatlarini namoyon etadi.

Mo'g'ul sarkardalari shaharga bostirib kiradilar. O'degey Shayx Najmiddin Kubroga qarata: "Chingizxonning nomi bilan ont ichaman, siz va yaqinlaringizning bariga, olim, ulamolarga omonlik beriladi... Muhtaram zot! Vaqt tig'iz. Qarchig'aylarim tortilgan kamondek, ko'rdingiz. Manjanig, o'qotar, toshotarlar taxt! Siz endi bizning hukmimizga o'tgan bari hududlarda erkin va daxlsiz erursiz! Odamlarimni qo'shib beraman. Yaqinlaringizni olib shahardan keting!", - deb aytadi. Uning gaplariga javoban Hazratning so'nggi so'zlari nihoyatda ta'sirli va ishonarli aks etganki, bu esa talqinda tabiiylikni ta'minlagan. Shayx Hazratlari shunday deydi: "...Bu og'ir soatda tangrim meni Xorazmshoh yetishmagan imtiyozga yor etdi! Bu soatda men o'z elim, xalqim bilan naqadar bir jon-bir tan ekanimni his etdim! Haqning diydoriga, ulug' ruhga birlashishning

²¹ Бектошева А. Тарикат, маърифат ва шеърят муштараклиги. (Шайх Нажмиддин Кубро ҳаёти ва ижоди мисолида). Фил.фанл.бўйича фалсафа доктори (PhD) автореферати. – Т.: 2019. – Б. 15.

boshqa buyuk maqomini kashf etdim! Angladim! Endi mening, mana, har bir qadamim Haq yo‘li bo‘ladi! Bu mening fuqarolik, farzandlik imtiyozimdir! Vatan bilan birlashmoq barcha e‘tiqodlarning olijanob ibtidosidir! Demak, Shayx Najmiddin Kubro o‘z vatanini hech qachon, hech qanday sharoitda, hech qanday mukofot va tortiqlar evaziga tark etmaydi! Arzimas joni, umri evaziga vatanni og‘ir soatda yolg‘iz qoldirmaydi, tashlab ketmaydi! Hech qachon Ona makon, Ota maskan ustida g‘ayur yovlar, yalovlarning erkin hilpirashiga yo‘l qo‘ya olmaydi! Alvido, xor-u zor toptalgan, Vatan! Assalom, erkka tashna, ozod ruh, Vatan!”²². Shunday olovli so‘zlarni aytib Shayx Hazratlari mo‘g‘ul qo‘shinining bosh bayrog‘ini ushlab turgan suvoriy yoniga borib, bayroqni yulqib olib, yerga bosadi. Bu voqealar tasviri orqali muallif asosiy e‘tiborni jasoratning ma‘naviy-ruhiy omillariga va qahramonning vatanparvarlik xususidagi falsafiy mulohazalari ifodasiga qaratadi.

Umuman, Omon Matjonning “Shayx Najmiddin Kubro” tragediyasi tarixiy haqiqat va badiiy idrok sintezining xolislik, haqqoniylik va yangi tafakkur tamoyili asosida yaratilgan asardir. Dramaturg bosh qahramon talqinida davrning ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy masalalari hamda Najmiddin Kubro hayoti va faoliyatining qator qirralarini muvaffaqiyatli badiiy tadqiq eta olgan. Zero, tragediya Najmiddin Kubroning nafaqat milliy qahramon, buyuk vatanparvar, balki valiytarosh, islomiy e‘tiqod fidoyisi, ma‘naviy-ruhiy qudrat egasi, ilohiy karomatlar sohibi kabi to‘laonli siymosini kashf etgani bilan ahamiyatlidir.

XULOSA

1. O‘zbek adabiy tafakkurining tarixiy rivoji davomida buyuk tarixiy shaxslar, xususan, pirlar, avliyolar va tasavvuf allomalari to‘g‘risidagi ko‘plab asarlar yaratilgan. Ushbu yozma manbalarda mazkur shaxslar turli adabiy janr va uslublarda ifoda qilingan. Masalan, Shayx Najmiddin Kubro, Imom al-Buxoriy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur va Mashrab haqida turli davrlarda va janrlarda yaratilgan asarlar fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi. Bunday asarlarning o‘ziga xosligi shundaki, ulardagi qahramonlarning faoliyati ular yashagan davr voqealari bilan uzviy bog‘liqlikda ifodalanadi. Shuning uchun, bir tomondan, ular o‘z zamonining farzandlari sifatida, ikkinchi tomondan, ilg‘or fikrlari va yuksak g‘oyalari bilan o‘z davridan ilgari boruvchi shaxslar sifatida namoyon bo‘ladilar. Natijada, ularning xarakterlarida milliy va umumbashariy jihatlar uyg‘un tarzda birlashgan.

2. Istiqloq davri adabiyotida Najmiddin Kubro siymosining badiiy tasviri tarixiy ijodkor shaxs konsepsiyasiga asoslangan holda shakllantiriladi va unda davr, inson hamda ijodkor shaxsiyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar markaziy o‘rinlarda beriladi. Bu masala Shayx Najmiddin Kubroning ilohiy qudrat sohibi, fidoyi vatanparvar va mutafakkir-valiy, “din va tariqatning, millat va ma‘naviyatning eng porloq yulduzi” sifatidagi obrazlari orqali yoritilib, o‘rta asr sharoitida tom ma‘nodagi barkamol inson timsoli sifatida aks ettirildi. Shuningdek, adabiy asarda tarixiy shaxs konsepsiyasining muhim jihati – tarixiy ilg‘amni

²² Омон Матжон. Дийдор азиз. – Т.: “Noshir”, 2011. – Б. 85.

voqea, shaxs, makon va zamon o'rtasidagi uyg'unlik sifatida ko'rsatiladi va bu haqida asarlarda konkret misollar orqali tasvirlangan.

3. Najmiddin Kubro haqida yaratilgan qator tarixiy, ma'rifiy va badiiy asarlarda uning mo'g'ullar bosqini paytida qilgan qahramonligi, mard vatanparvar ekanligi qayd qilingan. Jumladan, Shayx hayotini o'rganishda Farididdin Attorning "Tazkirat-ul avliyo", Rashididdin Fazlullohning "Jome at-tavorix", Abdurahmon Jomiyning "Nafohat ul-uns", Alisher Navoiyning "Nasoyim-ul muhabbat", Alouddavla Simnoniyning "Fazl at-tariqa", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Ali Safiyning "Rashohotu aynil - hayot", Sayfiddin Boharziyning "Avrod ul-ahbob va fusus ul-odob", Ibn al-Karbaloyining "Ravzat ul-jinon", Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Habib us-siyar" kabi qator tarixiy manbalar muhim manbalardir.

4. Allomaning tasavvufiy ta'limoti yuzasidan N.Komilov, H.Homidiy, I.Haqqul, A.Juzjoniy, U.Saidov, A.Choriyev, B.Sharif, U.Qoraboyev, O.Safarboyev, A.Bektosheva kabi bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlari e'lon qilingan. Tadqiqotlarda Najmiddin Kubroning tasavvuf ilmidagi o'rni, inson falsafasi haqidagi qarashlari, tasavvufiy asarlarining mazmun-mundariyasi, uning tasavvufiy ta'limotida insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarning ilgari surilishi kabi masalalar yoritiladi.

5. Mustaqillik yillarida yaratilgan bir qator adabiy-tarixiy asarlarda Najmiddin Kubro obrazi mahorat bilan shakllantirildi. Tarixiy asarlarga xos bo'lgan muhim jihatlardan biri — asarda voqealar sodir bo'lgan davrning ijtimoiy xususiyatlarini yoritish hamda voqealar ichidan eng muhimlarini tanlab, ularni badiiy talqin qilishdir. Ushbu xususiyatlar Najmiddin Kubro badiiy obrazini aks ettirgan Omon Matjonning "Dravaxonim" ("To'rabekaxonim") qissasi, "Najmiddin Kubro" tragediyasi hamda Xurshid Davronning "Shahidlar shohi" qissalarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

6. Istiqlol yillarida Najmiddin Kubro badiiy obrazi qissa janrida juda chiroyli yoritildi. X.Davronning "Shahidlar shohi", O.Matjonning "Dravaxonim" qissalari syujeti tarixiy fakt va voqelik bilan badiiy to'qima asosiga qurilgan. Darhaqiqat, tarixiy faktlar va real hodisalar yozuvchilar uchun katta imkoniyatlar beradi. Lekin hamma gap ularni muayyan maqsadni ifodalash yo'lida to'g'ri saralay bilish, teran baholash va yuksak badiiy shaklda talqin eta olishdadir.

7. Xurshid Davronning "Shahidlar shohi" qissasi tarixiy-ma'rifiy xarakterda bo'lib, asarda diniy-ma'rifiy manbalar, Qur'oni Karim oyatlari va hadislardan o'rinli foydalanilgan. Qissada bevosita Najmiddin Kubro hayoti, uning yetuk tariqati, avliyoligi, komilligi va vatanparvar sifatidagi badiiy siymosi gavdalantirilgan. Asarda boy tarixiy materiallarga tayanilgan bo'lib, unda Kubraviya tariqatining shakllanishi va uning komil inson tarbiyasidagi roli tahlil etilgan. Shuningdek, mardlik va vatanparvarlik tushunchalari muhim mafkuraviy g'oyalar sifatida ilgari surilgan.

8. Omon Matjon ijodida Najmiddin Kubroga bag'ishlangan she'rlar, qissa va tragediya mavjud bo'lib, bu adibning buyuk siymoga alohida hurmat-ehtiromi natijasidir. Uning "Dravaxonim" ("To'rabekaxonim") qissasi syujetning asosini Kubro o'limidan bir asr keyingi voqealar tashkil etgani sababli, Shayx joriy

hodisalarda bevosita ishtirok eta olmaydi. Qissada Najmiddin Kubro vafotidan keyingi davr, avliyo qo‘nimgohini tiklash yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan Pahlavon Mahmud faoliyatining me‘mor, mirob, dono maslahatchi va tabiblik kabi yangi qirralari yoritilgan. Muhimi shundaki, qissaning umumiy mazmun-mohiyati, optimistik pafosi, Kubro fenomenining ikki jihati – ijodkor va vatanparvar shaxs sifatidagi siymosi bir nuqtada jamlangan.

9. Omon Matjonning “Najmiddin Kubro” tragediyasi so‘nggi yillarda Shayx hazratlari hayoti haqidagi adabiy ijodda o‘zining yuqori badiiy va mazmunan boyligi bilan ajralib turadigan asarlardan biridir. Ushbu tragediyada Shayx Najmiddin Kubroning, ayniqsa, Xorazmda kechgan so‘nggi hayot davri batafsil yoritiladi. Tarixiy fojia janrida yaratilgan asarda muallif Shayx Najmiddin Kubroni nafaqat tasavvuf olimi sifatida, balki ma‘naviy va jismoniy qudrat egasi, shuningdek, yurt qahramoni va milliy vatanparvar sifatida ham talqin etishga intiladi. Asarda buyuk olimning tabiat, inson, hayot va o‘lim, shuningdek, ezgulik va yovuzlik tushunchalari haqidagi qarashlari asosida tarixiy jarayon doirasidagi ikki asosiy omil — davr va inson munosabati o‘rganiladi va yoritiladi.

10. Omon Matjonning “Shayx Najmiddin Kubro” tarixiy fojiasi nihoyatda kuchli lirizm va yuksak mahorat bilan yozilgan asar bo‘lib, tragediya Najmiddin Kubroning nafaqat milliy qahramon, buyuk vatanparvar, balki valiytarosh, islomiy e‘tiqod fidoyisi, ma‘naviy-ruhiy qudrat egasi, ilohiy karomatlar sohibi kabi to‘laonli siymosini kashf etgani bilan ahamiyatlidir.

Umuman, istiqlol adabiyotida Shayx Najmiddin Kubro – buyuk mutafakkir, tasavvuf olimi, ma‘naviy va jismoniy qudrat egasi, shuningdek, milliy qahramon sifatidagi badiiy obrazlar turli janrlardagi asarlarda yaratilgan bo‘lib, ular tarixiy haqiqat va badiiy idrokning sintezi sifatida, xolislik, haqqoniylik hamda yangi tafakkur tamoyillariga asoslangan holda shakllantirilganligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.FIL.55.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

ОЧИЛОВА ОЗОДА БАХТИЁРОВНА

**НОВАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА ШЕЙХА
НАДЖМИДДИНА КУБРО В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ
(на примере произведений Омона Матжона и Хуршида Даврона)**

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ургенч – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2022.4.PhD/Fil2882.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (fil-ik.urdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» www.ziynet.uz.


Научный руководитель:	Гайипов Дилшод Кадамбоевич доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Керуменов Турганбай Аразмедович доктор филологических наук, профессор Алламбергенов Анвар Эркабаевич доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Ведущая организация:	Бухарский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится « 30 » декабря 2025 г. в 9:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 по присуждению ученой степени при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Хамида Алимджана, дом №14). Тел: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за № 2-923) (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Хамида Алимджана, дом №14. Тел: (99862) 224-67-00).

Автореферат диссертации разослан « 16 » декабря 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 67 от « 16 » декабря 2025 года.)




О.О.Чупонов
заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент


С.С.Атажанов
ученый секретарь научного совета по присуждению ученой степени, доктор философии по филол. наукам (PhD), доцент


А.Д.Уразбоев
председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученой степени, доктор филол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Перед мировым литературоведением стоит актуальная задача художественной интерпретации образов выдающихся учёных и исторических личностей, оставивших значительный след в истории страны. Изучение различных аспектов художественного таланта одаренных писателей, создавших подобные произведения, анализ их мастерства в воссоздании образа исторической личности и раскрытии его художественно-эстетической значимости являются актуальными задачами литературоведческой науки.

Современные тенденции в мировом литературоведении меняют подходы к художественной интерпретации образов исторических личностей и национальных героев. Мировые ученые и писатели, наряду с исследованием национально-культурного наследия и разработкой концепции создания исторического образа, демонстрируют особые подходы в своих изысканиях по освещению художественного мастерства творца. Ключевой задачей становится глубокое и всестороннее изучение обновлённых трактовок образов известных исторических деятелей и учёных, что является важной проблемой для современной науки о литературе. Именно анализ художественных интерпретаций всемирно известных личностей помогает определить поэтический масштаб литературы определённой эпохи.

Обретение независимости стало отправной точкой для свободного развития всех областей жизни страны, включая узбекское литературоведение. На нынешнем этапе, в период «Нового Узбекистана», качественные преобразования становятся все более очевидными. Этот исторический поворот охватывает социально-экономическую и духовную сферы, расширяя масштабы коренных обновлений. Часть этих изменений, связанных с историческими и религиозными ценностями, приобретает не только национальное, но и общечеловеческое значение. Поучительны в этом отношении следующие слова нашего президента: «Мы обладаем великой историей, выдающимися предками и несравненными богатствами, вызывающими восхищение. И я убежден, что на этой основе мы непременно создадим великое будущее, а также великую литературу и искусство, которые будут служить предметом гордости»²³. В аксиологической системе важное место занимает личность создателя и его концептуальное видение. Показательной в этом отношении является образ Шейха Нажмиддина Кубро (1145-1221), выдающегося представителя раннесредневековой философско-мистической науки, чей жизненный путь представляет собой поучительный пример. Его учение о гармонии человека и Вселенной, о превознесении чести и достоинства личности, о достижении нравственной и научной высоты, а также о самопожертвовании в интересах Родины, сохраняет свою актуальность и служит для совершенствования человека новой формации. В связи с этим, произведения, в которых воссоздан художественный образ

²³ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир. // “Халқ сўзи”, 2017 йил, 4 август.

